

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDURAHMONOV Q.X., SHOYUSUPOVA N.T., BAKIEVA I.A.**

# **MEHNAT IQTISODIYOTI**

**DARSLIK**

**Toshkent - 2009**

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY  
SPECIAL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS**

**ABDURAHMONOV Q.X., SHOYUSUPOVA N.T., BAKIEVA I.A.**

# **LABOUR ECONOMICS**

**Tashkent- 2009**

**Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakieva I.A., «Mehnat iqtisodiyoti» (Darslik) – T.: TDIU, 2009. 257 bet.**

Darslikda inson va jamiyat faoliyatining negizi bo'lgan mehnat to'g'risida tasavvur beradigan mehnat sohasidagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalar va tushunchalarning nazariy mazmuni tahlil qilinib, ish bilan bandlik va mehnat bozorining mohiyati ochib berilgan holda mehnatkash insonni shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Xodimlar faoliyatini tashkil etish masalalari yangicha bayon qilingan.

Unda mehnat iqtisodiyotiga oid respublikamiz va chet mamlakatlarda chop etilgan darsliklar, ilmiy monografiyalarda bayon qilingan g'oyalar va kontsepsiyalar umumlashtirilgan. Har bir bobning yakunida keltirilgan savollar amaliy-nazariy seminar mashg'ulotlarida o'qituvchi rahbarligida muhokama qilishga mo'ljallangan.

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlarining 5340200 - «Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi» ta'lim yo'nalishi talabalari, bakalavr va magistrlar hamda mehnat iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

***Ma'sul muharrir:***

**Dadaboyev Q.A.** – Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, «Iqtisodiyot» fakulteti dekani, prof.

***Taqrizchilar:***

**Gabzalilova V.T.** – G.V.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot Akademiyasining Toshkent shahri filali “Umumiqtisodiy mutaxassisliklar” fakulteti dekani, i.f.n.

**Xakimov X.M.** – Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, «Mehnat iqtisodiyoti va aholishunoslik» kafedراسi professori, i.f.n.

**Абдурахманов К.Х., Шоюсупова Н.Т, Бакиева И.А. «Экономика труда» (Учебник) – Т.: ТГЭУ, 2009. 257с.**

В учебнике рассмотрен комплекс взаимосвязанных вопросов, раскрывающих фундаментальные теоретические проблемы и отражающих наиболее принципиальные практические аспекты экономики труда – теории воспроизводства рабочей силы, рынка труда, занятости, потребности и мотиваций»; проблемы производительности труда; политика доходов и заработной платы; управление персоналом; социальная защита; социальное страхование, социальное партнерство и др. Некоторые проблемы рассматриваются авторами с учетом зарубежного опыта и особенностей социально-экономического положения Узбекистана.

***Ответственный редактор:***

**Дадабоев К.А.** – Декан факультета  
«Экономика» ТГЭУ, проф.

***Рецензенты:***

**Габзалилова В.Т.** - Декан факультета  
«Общеэкономические дисциплины» филиала  
РЭА в г.Ташкенте, к.э.н.

**Хахимов Х.М.** - профессор кафедрой  
«Экономика труда и народонаселения»  
ТГЭУ, д.э.н.

**Abdurakhmonov K.X., Shoyusupova N.T., Bakieva I.A., “Labour economics” Tashkent: TSUE © 2009 257 p.**

In the textbook the complex of the interconnected questions revealing fundamental theoretical problems and reflecting the most basic practical aspects of economy of work - of the theory of reproduction of a labour, market of work, employment, requirement and motivations" is considered; problems of productivity of work; politics of the incomes and wages; management of the personnel; social protection; social insurance, social partnership etc. Some problems are considered by the authors in view of foreign experience and features of a socio economic situation of Uzbekistan.

The textbook is intended for the students of institutions of higher education who are majoring in “Economics” (labor) – 5340100.

***Responsible Editor:***

**Ass.Prof. Dadabjyev Q.A.** - The dean of faculty Economic , prof.TSUE;

***Reviewers:***

**Asst. Prof. Gabzalilova V. T.** – - The dean of faculty of Russian Economic Academy under name of G.V.Plexanova, candidate of economic sciences

**Prof. Xakimov X.M.**– professor TSUE;  
Candidate of economic sciences

## KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi mehnat to'g'risidagi nazariy va amaliy tasavvurlarni o'zgartirib, jamiyat faoliyati rivojining mutlaqo yangi asoslari ishlab chiqilishini taqozo etadi. Mehnat tushunchasi muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, u muntazam ravishda tadqiq etish va aniqlashni talab qiladigan ko'p qirrali tushunchadir

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohlarni mehnat munosabatlarining mazmuni va xarakterida ham tub o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. SHo'rolar davridagi davlat tizimida aslini olganda yagona mulkdor va ish beruvchi mavjud bo'lib, xodim siyosiy iqtisodning klassik qonunlariga ko'ra yollanma ishchi hisoblanmas edi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar mulk shakllarining xilma-xilligini vujudga keltirdi, mehnat yollanadigan bo'ldi, ishchi kuchi esa tovarga aylandi.

**Fanni o'rganishning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, «Asosiy ustuvor vazifa avvalgidek-bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishdan iborat»<sup>1</sup>.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mehnat to'g'risidagi nazariy va amaliy tasavvurlarni o'zgartirib, jamiyat faoliyati rivojining mutlaqo yangi asoslari ishlab chiqilishi taqozo etiladi. Mehnat muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, u muntazam ravishda tadqiq etish va aniqlashni talab qiladigan ko'p qirrali tushunchadir. Demak, jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy muammolariga mehnat tushunchasi nuqtai nazaridan yondashish mumkin.

Inson o'z tabiatiga ko'ra, ijtimoiy mavjudotdir. U o'ziga va yaqin kishilariga turmush kechirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Shu tariqa iqtisodiyot olami vujudga keladi. Insoniyat taraqqiyotining tarixi – iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, ijtimoiy mehnat taqsimoti sohasidagi munosabatlarning rivojlanish tarixidir. Payg'ambarimiz Muhammad Sallolohu Alayhi Vasallam ezgulik, xayrli ishlar va olijanoblik kuchini o'z shaxsiy hayoti orqali ko'rsatib berishga intilgani va yaxshilik urug'ini sochishga chaqirganligi hamma uchun ibratlidir. U jamiyatda mehnatning tutgan o'rnini yuksak baholab, «Mehnat qilishdan uyalmang. Mehnat qilish – ibodat qilishga barobar», - deb uqtirganligini ta'kidlagan holda, bugungi kunda ham mehnat va u bilan bog'liq jarayonni o'rganishga bo'lgan intilish yanada rivoj topib, iqtisodiyotda muhim o'rin tutishini yana bir bor ta'kidlamoq darkor.

Aynan mehnat to'g'risida juda ko'p maqollar va hikmatlar vujudga kelganligi, ko'pgina mumtoz san'at asarlarida ham mehnat munosabatlari o'z ifodasini topganligi bejiz emas. Ular madaniyat, ijtimoiy munosabatlar, an'analar va tajribalarni aks ettiradi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mehnat munosabatlarining mazmuni va xarakterida ham tub o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Sobiq ittifoq davridagi davlat tizimida aslini olganda yagona mulkdor va ish beruvchi mavjud bo'lib, xodim siyosiy iqtisodning klassik qonunlariga ko'ra yollanma ishchi hisoblanmas edi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, amalga

---

<sup>1</sup>I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch». -T., 2008.

oshirilgan iqtisodiy islohotlar mulk shakllarining xilma-xilligini vujudga keltiridi, mehnat yollanadigan bo'lib, ishchi kuchi tovarga aylandi.

Mehnat to'g'risidagi fanlardan biri «Mehnat iqtisodiyoti» fanidir. Odamning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish borasidagi maqsadga yo'naltirilgan, ongli faoliyati bo'lmish mehnat ushbu fan o'rganadigan obyekt bo'lib hisoblanadi. Mehnat, shuningdek, ko'plab boshqa fanlar, jumladan mehnat fiziologiyasi va psixologiyasi, mehnat statistikasi, mehnat gigienasi, mehnat huquqi va shu kabi bir qator fanlarni ham o'rganish obyektidir. Ushbu fanlar tadqiqot predmeti, ya'ni obyektning qaysi tomonini o'rganishi bilan bir-biridan farqlanadi.

«Mehnat iqtisodiyoti» fan sifatida mehnat munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarni, shu jumladan, mehnat mohiyati namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllari, chunonchi, ish bilan bandlik, mehnatni tashkil etish, unga haq to'lash, uning samaradorligi, mehnat sotsiologiyasi bilan bog'liq bir qator muammolarni o'rganadi. «Mehnat iqtisodiyoti» iqtisodiy va ijtimoiy fan sifatida jamiyatdagi o'zaro muvofiqlik va moslashuv jarayonlarini tushuntirib beradi. «Mehnat iqtisodiyoti» asoslarini bilish mutaxassisga ro'y berayotgan voqea-hodisalarni o'rganishga asbtraksiyalashgan holda va asosli ravishda yondashish, ularning harakatlantiruvchi kuchlarini tushuntirish va ahamiyatini baholash imkonini beradi.

«Mehnat iqtisodiyoti» fanini o'rganishda mehnat jarayonida amalga oshadigan turli omillar – texnikaviy, tashkiliy, ijtimoiy yoki boshqa xarakterdagi omillar ta'siri ostida qaror topadigan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarga katta e'tibor beriladi. Bunday yondashuv tasodifiy narsalarni chiqarib tashlab, asosiy e'tiborni obyektiv va tipik narsalarga qaratish, fanni yanada chuqur o'rganish uchun mehnat munosabatlari sohasidagi to'g'ri dunyoqarashni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ifodalash imkonini yaratadi.

«Mehnat iqtisodiyoti» kursining mazmuniga mehnat va mehnat munosabatlari sohasidagi ham nazariy, ham amaliy masalalar kiritilgan bo'lib, ular qanday natijalar berishiga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan baho berish nuqtai nazaridan qarab chiqiladi. Har qanday nazariya tushuntiruvchi va prognoz qiluvchi kuchga ega. Biroq amaliyot nazariy kontekstsiz mustaqil ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ham kurs masalalarini o'rganish talabalarga konkret faoliyat sharoitida shaxsiy bilimlaridan yanada chuqurroq foydalanish imkonini beradi. Kurs korxonada miqyosida mehnatni tashkil etish va uni amalga oshirish omillari, shart-sharoitlari, mehnat bozorining mavjud bo'lishi, ish bilan bandlik, ish haqi va uni tashkil etishda davlat siyosati, kishilarning ehtiyojini qondirish uchun mo'ljallangan moddiy va ma'naviy qadriyatlarining oshib borishida mehnatning roli singari asosiy kategoriyalar va tushunchalarni o'rganish, shuningdek, «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi» ko'rsatkichlarini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilishni e'tiborda tutadi. Bundan maqsad – ularning o'zgarib borish tamoyillarini aniqlash, rejalashtirish va prognoz qilishdir.

# 1-BOB. MEHNAT TO'G'RISIDAGI FANNING YUZAGA KELISHI VA UNING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI


## 1. Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishi

Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishi va rivojlanishi insoniyat tarixiga bevosita ta'sir ko'rsatgan nazariyalar bilan bog'langan, zero ular insonning eng muhim, uni boshqa jonzotlardan farqlaydigan mohiyatiga — mehnat qilish qobiliyatiga, ya'ni tabiat ashyolarini ongli ravishda o'zgartira borib, ularni o'z talab htiyojlariga moslashtira olishga taalluqlidir.

Mutafakkirlar, iqtisodchi-olimlar, amaliyotchi arboblari e'tiborini band qilgan va pirovard natijada jamiyatning rivojlanish sur'atlarini ko'p darajada belgilagan mehnat to'g'risidagi masalalar ko'p qirrali bo'lib, u uzoq tarixga ega.

Iqtisodiy tafakkur qadim zamonlardan buyumlar qiymati yuzaga kelishi sirini tushunib etishga urinib kelgan. Qadimgi yunon faylasufi **Arastuning** (Aristotel eramizdan oldingi 384—322 yillar) asarlarida tovarlar qiyoslana olishi muammosi tilga olingan edi. U ayirboshlash nisbatlari nima bilan belgilanadi, degan savolni o'ziga o'zi berib, unga bir xil mazmunda javob berolmasligini, lekin u shu xususida bir necha taxminlar borligini bildirgan.

Siyosiy iqtisodning ajralmas qismi bo'lgan mehnat to'g'risidagi fanni rivojlantirishga ingliz iqtisodchi olimi **Adam Smit (1723—1790)** nihoyatda katta hissa qo'shdi. Uning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» deb nomlangan asosiy asarida (1776) mamlakat boyligi moddiy ishlab chiqarish mahsulotlari bilan belgilanishi to'g'risidagi qoida bayon qilingan. Mahsulotlarning hajmi ishlab chiqarishda qatnashadigan aholining ulushiga va undagi mehnat unumdorligiga bog'liq bo'ladi. Mehnatning taqsimlanishi va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining chuqurlashtirilishini A. Smit mehnat unumdorligi oshishining sharti deb bilgan.



1.1.-chizma. A.Smitning qiymatga oid konsepsiyasi



Jamiyatning ibtidoiy holatiga xos vaziyat e'tiborga olinmasa, A. Smitning tovarlar qiymati nazariyasida ikki xil nuqtai nazarni, ya'ni qiymatning mehnat nazariyasi va ishlab chiqarish omillari nazariyasining bir yo'la mavjudligini ko'rish mumkin. A. Smitning boshqa fikr-mulohazalaridan, narx tarkib topadigan barcha daromadlar manbai mehnatdir, degan ma'no kelib chiqadi.

A. Smitning unumli va unumsiz mehnat to'g'risidagi qoidalariga qaytadigan bo'lsak, uning ushbu masalalarga doir fikr-mulohazalari nazariy jihatdagi qiziqishga arziydi. Sotishga mo'ljallangan buyumlarda mustahkamlanib va ro'yobga chiqib, qayta ishlanayotgan materiallar qiymatini oshiradigan mehnatni A. Smit unumli mehnat deb hisoblaydi. Unumsiz mehnat ko'rsatilishi paytida yo'q bo'lib ketadigan xizmatlar bilan bog'langan. A. Smitning fikricha, bunday mehnat qiymatga hech nima qo'shmaydi, u ayrim narsalarda mustahkamlanmaydi va ruyobga chiqmaydi, lekin o'z qiymatiga ega bo'ladi va taqdirlashga loyiqdir.

## 1.2. Qiymatga oid mehnat nazariyasining rivojlanishi

A. Smitdan keyin iqtisodiyotda bir-biridan tubdan farq qiladigan, insoniyat tarixiy rivojlanishining borishiga benihoya muhim ta'sir ko'rsatgan ikki yo'nalish: qiymatga oid mehnat nazariyasi va ishlab chiqarish omillari nazariyasi shakllandi.

Ingliz moliyachisi va siyosiy iqtisod klassik maktabining yirik namoyandasi **David Rikardoning (1772—1823)** ilmiy asarlari A. Smitning tovarlar qiymati tabiati to'g'risidagi nazariyasida mavjud bo'lgan ikki xillikni bartaraf etib, qiymatning mehnat nazariyasiga o'tilishni va mehnatni qiymatning yagona manbai deb topilishiga olib keldi. D. Rikardo mehnat to'g'risidagi iqtisodiy nazariya yo'nalishlaridan birining asoschisi hisoblanadi. U «Siyosiy iqtisod va soliq solish asoslari» asarida bunday deb yozgan edi: «Tovarning qiymati yoki u ayirboshlanayotgan birorta boshqa tovarning miqdori uni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnatga to'lanadigan ko'proq yoki kamroq haqqa emas, balki shu mehnatning nisbiy miqdoriga bog'liq bo'ladi»<sup>2</sup>.

### **David Rikardo (1772—1823)**

#### **□ Siyosiy iqtisod va soliq solish asoslari Asari:**

**□ Tovarning qiymati yoki u ayirboshlanayotgan birorta boshqa tovarning miqdori uni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnatga to'lanadigan ko'proq yoki kamroq haqqa emas, balki, shu mehnatning nisbiy miqdoriga bog'liq bo'ladi**

Olim quyidagi uch asosiy ijtimoiy sinfni: er egalari, kapital egalari va ishchilarni bir-biridan farqlagan. Ularning har biri o'z daromadini, tegishli shaklda: renta, foyda va ish haqi shaklida oladi. Ammo Rikardo fikricha, renta ham, foyda ham ishchilar haqi to'lanmagan mehnatning qismidir. Ish haqi miqdorini D. Rikardo

<sup>2</sup> Антология экономической классики. Т.1, 402-с.

xodim va uning oilasi tirikchilik mablag'lari qiymati bilan belgilab, A. Smitdan farqli ravishda bu qiymatni yashash minimumi bilan qat'iy cheklagan.

Mehnat to'g'risidagi nazariya, quyidagi ikki asosga tayangan:

1. Abstrakt inson mehnati tovarlar qiymatining *yagona* manbai hisoblanadi.

2. Ishchi kuchi - insonning o'z qiymatidan ko'proq qiymat yaratadigan mehnat qobiliyatidirki, bu qobiliyat yuqorida aytib o'tilganidek, A. Smit, D. Rikardo o'z muxolifi bo'lgan frantsuz iqtisodchisi Jan-Batist Seyning xizmatlarini yuqori baholab, unga quyidagicha ta'rif beradi: Evropa qit'asida Smitning printsiplarini to'g'ri baholagan va birinchi bo'lib qo'llagan iqtisodchi olimlardan, yozuvchilardan biri bo'lgan. U Evropadagi millatlarni ushbu ma'rifatli va xayrli ta'limotning printsiplari bilan tanishtirish maqsadida hammadan ko'ra ko'proq harakat qilgan, shuningdek, fanga mantiqliroq hamda ibratliroq tartib kirita olgan va fanni ko'plab o'ziga xos, aniq va chuqur tadqiqotlar bilan boyita olgan shaxsdir»<sup>3</sup>.

Tovarlar qiymatining shakllanish mexanizmiga ko'ra, aniq mehnat iste'mol qiymatini, abstrakt inson mehnati esa tovarlar qiymatini yaratadi. Sarf qilingan mehnatning miqdori esa uning davomlilik va ish vaqti bilan o'lchanadi, ish vaqti esa, o'z navbatida, o'zining miqyosini soat, kun va boshqalar kabi muayyan vaqt ulushlaridan topadi.

**Abstrakt mehnat deganda** insonning bir xil tafovutlardan xoli bo'lgan mehnatini, inson ishchi kuchining fiziologik ma'nodagi sarflanishi deb qaraladigan, tovarlar qiymatini hosil qiladigan mehnat tushunilgan edi.

Aniq mehnat deganda iste'mol qiymatlarini yaratadigan inson - ishchi kuchining maqsadga muvofiq, alohida shaklda sarflanishi tushunilgan.

Mehnatning namoyon bo'lishi bu shakllarning barchasi bilan uzviy birligidadir. Mehnatning namoyon bo'lish shakllarini farqlash mehnatning og'irlik, tig'izlik, mazmundorlik darajasi va boshqa jihatlarini tadqiq etishda birmuncha ahamiyatga ega bo'ladi. Lekin inson quvvatini fiziologik ma'noda sarflanishi bilan bog'liq mehnatni uning namoyon bo'lish shakllaridan biri sifatidagina ta'riflash, uning mohiyatini qashshoqlashtirishga olib keladi.


Ishchi kuchi deganda odamlarning turli toifalari tushunilgan. Hozirgi kunda ushbu ta'rifdan tashqari yana bir qancha ta'riflar mavjud:

— «Ishchi kuchi deganda yoshi 16 dan oshgan va shu vaqtda ishlab turgan yoxud faol ravishda ish izlayotgan, yoxud ishdan bo'shaganidan keyin uning xizmatlariga yana murojaat qilishlarini kutadigan xodimlar nazarda tutiladi» — hozirgi amerikalik mehnat iqtisodi yoti tadqiqotchilari ishchi kuchi tushunchasini ana shunday talqin qiladilar;

— «Ishchi kuchi» tushunchasini tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun mehnat taklifini ta'minlaydigan hamda ish bilan bandlar va ishsizlardan iborat bo'lgan aholi qismi tushuniladigan «iqtisodiy faol aholi» tushunchasining sinonimi sifatida ishlatilmoqda;

---

<sup>3</sup> Жан-Ватисм Сей. Тракт по политической экономии. М.: «Дело», 2000, 7-б.



**1.2-chizma. Mehnat to'g'risidagi fanning rivojlanish yo'nalishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning asosiy g'oyalari.**



— buyum bo'lmagan ne'matlar ishlab chiqaruvchilar ham bo'lishi mumkin (shifokorlar, artistlar, sartaroshlar va boshqalar), ular harakatining foydasi hech qanday buyum bilan bog'lanmaydi, lekin shunday qiymatga ega bo'ladiki, undan foydalansa bo'ladi. Buyum bo'lmagan ne'matlar ishlab chiqarilgan zahotiy oq iste'mol qilinadi;

— ishlab chiqarishning barcha qatnashchilari, buyumga foydalilik baxsh etib, uning narxini shakllantirishda qatnashadi va buning uchun daromadagi o'z ulushini: **er egasi** renta tarzida, **kapitalist** kapital uchun foiz tarzida, **korxonaga egasi** foyda tarzida, xodim ish haqi tarzida oladi;

— oddiy (malakasiz) xodimning mehnatiga to'lanadigan haq uning o'z oilasini ta'minlashga etadigan narxdan oshmaydi, chunki uning bajaradigan ishini bajarish uchun odam bo'lishning o'zi kifoya, odam esa tug'ilib, tirikchilik qilish mumkin bo'lgan jamiki joyda tirikchiligini qiladi. Usta-hunarmand odam (malakali xodim)ning mehnatiga haq to'lash ularni o'qitish sarf-xarajatlarini o'z ichiga oladi;

— kapital yuzasidan olinadigan foiz uni turli yo'nalishlarda ishlatish imkoniyatiga va bozordagi band etilmagan kapitallar miqdoriga bog'liq bo'ladi;

**Jan Batist Sey (1767—1832). Ishlab chiqarish to'g'risidagi nazariyaning asosiy qoidalari**

boylik — inson foydalana oladigan jami ne'matlardir

buyum bo'lmagan ne'matlar ishlab chiqaruvchilar ham bo'lishi mumkin

qiymat buyumga u ilgari ega bo'lmagan foydalilikni baxsh etish bilan yuzaga keladi

ishlab chiqarishning barcha qatnashchilari, buyumga foydalilik baxsh etib, uning narxini shakllantirishda qatnashadi

ishlab chiqarish — buyumlarga qiymat baxsh etib, ularni foydali qiladi, u qishloq xo'jaligi, sanoat va savdo bilan cheklanishi mumkin

oddiy (malakasiz) xodimning mehnatiga to'lanadigan haq uning o'z oilasini ta'minlashga etadigan narxdan oshmaydi

buyumlarga qiymat baxsh etish. odam, kapital va er bajaradigan harakat tufayli amalga oshadi.

kapital yuzasidan olinadigan foiz uni turli yo'nalishlarda ishlatish imkoniyatiga va bozordagi band etilmagan kapitallar miqdoriga bog'liq bo'ladi

buyumlar ishlab chiqaruvchilar — xodimlar, korxonaga egalari va er egalariга airatiladi

buyumlarning qiymati bozorda ularga bo'lgan talabga va ularning taklif etilishiga bog'liq bo'ladi

**1.3.-chizma. Ishlab chiqarish to'g'risidagi nazariyaning asosiy qoidalari**

— urning narxi va renta cheklanganligi va yollovchilarning unga bo'lgan ehtiyojlari cheklanmaganligi bilan belgilanadi;

— buyumlarning qiymati bozorda ularga bo'lgan talabga va ularning taklif etilishiga bog'liq bo'ladi.

Boylklarni taqsimlashning ushbu nihoyatda oddiy chizmasi fandagi haqiqiy olg'a siljish bo'ldi. Avvalo u fiziokratlarning chizmasidan ancha aniqroqdir, ularning chizmalariga ko'ra moddiy mahsulotlar ayrim shaxslar o'rtasida emas, balki sinflar o'rtasida muomalada bo'ladi. J.B. Seyning mazkur oddiy chizmasida kapitalistning taqdirlanishini korxonaga egasining taqdirlanishidan osonlikcha ajratish mumkin, A. Smitda bular aralash holda edi. Tadbirkor ko'p hollarda kapitalist bo'lganligi bahonasida shotlandiyalik iqtisodchi deyarli barcha ingliz mualliflarining ibrati bo'yicha ana shu ikki xil taqdirlashni aralastirib yuborgan va «foйда» so'zi bilan uning butun taqdirlanishini belgilagan, uning o'z kapitali yuzasidan oladigan foizini so'zning tom ma'nosidagi foydadan farqlay olmagan.

Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatnigina emas, balki har qanday boshqa foydali mehnatni ham unumli deb topishi, Seyning nazariyasini o'tmishdoshlarining qarashlaridan, shuningdek Rikardo va materialistlarning qarashlaridan farqlab turadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishi va rivojlanishi insoniyat tarixiga bevosita ta'sir ko'rsatgan nazariyalar bilan bog'langan, zero ular insonning eng muhim, uni boshqa jonzotlardan farqlaydigan mohiyatiga — mehnat qilish qobiliyatiga, ya'ni tabiat ashyolarini ongli ravishda o'zgartira borib, ularni o'z talab htiyojlariga moslashtira olishga taalluqlidir.

Iqtisodiy tafakkur qadim zamonlardan buyumlar qiymati yuzaga kelishi sirini tushunib etishga urinib kelgan. Qadimgi yunon faylasufi Arastuning asarlarida tovarlar qiyoslana olishi muammosi tilga olingan edi. Siyosiy iqtisodning ajralmas qismi bo'lgan mehnat to'g'risidagi fanni rivojlantirishga ingliz iqtisodchi olimi Adam Smit nihoyatda katta hissa qo'shdi.

A. Smitdan keyin iqtisodiyotda bir-biridan tubdan farq qiladigan, insoniyat tarixiy rivojlanishining borishiga benihoya muhim ta'sir ko'rsatgan ikki yo'nalish: qiymatga oid mehnat nazariyasi va ishlab chiqarish omillari nazariyasi shakllandi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Mehnat to'g'risidagi iqtisodiy tafakkur Arastudan boshlab to klassik siyosiy iqtisod paydo bo'lgunga qadar qanday rivojlangan?
2. Smitning mehnat to'g'risidagi fanga qo'shgan hissasi nimadan iborat?
3. Keyns fiskal siyosatining mohiyati nimadan iborat?
4. D. Rikardo va K. Marksning qiymatga oid mehnat nazariyasining mazmuni qanday?
5. J. B. Sey mehnat to'g'risidagi fanga qanday hissa qo'shgan?

6. Mehnat to'g'risidagi fan borasida iqtisodiy nazariyaning yangi klassik sintezi nimadan iborat?
7. Mehnat to'g'risidagi fanning rivojlanish yo'nalishiga xissa qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz?
8. Mehnat to'g'risidagi fanning rivojlanishi bo'yicha qanday asosiy g'oyalar mavjud?
9. J.B.Seyning ishlab chiqarish to'g'risidagi nazariyasining asosiy qoidalari nimalardan iborat?
10. Monitarsitlar ishlab chiqarish va bandlik darajasini belgilovchi asosiy omillar qaysilar deb hisoblaydilar?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт) дарслик Т.; Меҳнат, 2009.
2. Абдурахманов К.Х. и другие. Экономика труда. –М.: «Экзамен», 2009. -736с.
3. Агабекян Р.Л., Авагян Г.Л. Современные теории занятости 2-е, перераб., доп. изд. Издательство: Юнити-Дана, 2008.
4. Бородкин Л.И., Грегори П., Хлевнюк О.В. Гулаг: Экономика принудительного труда. Издательство: Российская политическая энциклопедия, 2008.

### **Internet saytlari**

1. *http://www.cer.uz – O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy tadqiqotlar markazi" ning elektron manzili.*
2. *http://5ballov.ru –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining na'muna variantlari veb-sahifasi.*
3. *www.demoscope.ru - Rossiya FAning inson demografiyasi va ekologiyasi Markazining demografik haftanomasi «Demoskop weekly».*
4. *www.jhucsp.org/popwel.stm POPLINE - mehnatga oid tadqiqotlar bo'yicha dunyoda eng katta bibliografik axborotlar bazasi.*








Mexanik tarzda bu natija ma'lum bir qarshilikni engish uchun sarflanayotgan energiya miqdori bilan o'lganadi.

Mehnat va ishning miqdori sarflangan vaqt – energiya bilan o'lgansa-da, ularni bir-biri bilan to'g'ridan to'g'ri tenglashtirish mumkin emas.




## 2.2.-cizma. Faoliyat turlari.

Mehnat insonning aqliy–fiziologik faoliyati bo'lib, unga to'g'ri keladigan ish bu jarayonning ob'ektiv natijasi hisoblanadi. Biror mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat va ish miqdorini bir xil o'lchovda, ya'ni kilogrammometrda aniqlanganda ishning miqdori mehnat sarfining bir qisminigina yoki aniqroq qilib aytganda 20-30%, ayrim hollarda esa undan ham ancha kam miqdorini tashkil etishi mumkin. Bajarilgan ishning miqdorini, jamiyat a'zolari tomonidan mehnatning sarflangan miqdoriga tenglashtirish yoki bir xil o'lchovda o'lchash ham noto'g'ri o'ladi.

Faoliyat jarayonida mexanik harakatlar qilinib katta hajmdagi ish miqdori bajarilishi mumkin, lekin bu faoliyat inson mehnatining mahsuli bo'lganligi uchun

mehnatga nisbatan tor va chegaralangan faoliyatdir. Mehnat va ish tushunchasi bir-biri bilan solishtirilganda, ish mehnatning mahsuli degan xulosaga kelamiz. Shu bois uning son va sifat ko`rsatkichlarini tahlil qilish mumkin.



### **2.3-chizma. Mehnatning asosiy funksiyalari**

Inson kuch-quvvatining sarflanish darajasi faoliyat turiga va ishlatiladigan mehnat vositalariga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, agar mehnat jarayoni uchta asosiy tarkibiy qismini o'z ichiga oladi:

- xom ashyo materiali (mehnat predmetlari)
- mehnat vositalari;
- jonli mehnat sarflari.

Ana shu uchta tarkibiy qismning o'zaro ta'sir ko'rsatish natijasi mehnat mahsuloti – tabiatning yangi mahsuloti bo'lib, u inson ehtiyojlariga moslashgan bo'ladi. Bular: yig'ib-terib olingan paxta hosili parvarish qilingan chorva mollari, barpo etilgan uy yoki ko'prik, tikilgan kiyim yoki poyabzallardan tashkil topishi mumkin.

### **2.3. Mehnatning inson va jamiyatning rivojlanishidagi o'rni**

Mehnat – boylik manbaidir. U inson faoliyatining birinchi va zarur sharti hisoblanadi. Inson va jamiyat taraqqiyotining tarixi jarayonda mehnatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Odamlar atrofdagi tabiatni o'zgartirar ekanlar, o'zlarining o'zgarib borayotgan ehtiyojlari ta'sirida o'z

tabiatlarini ham o`zgartiradilar: bilimlarini boyitib, qobiliyatlarini rivojlantiradilar va yangi ko`nikmalar hosil qiladilar.

Mehnat o`zining tarkibiy rivoji jarayonida jiddiy ravishda murakkablashdi: inson tobora murakkabroq va xilma-xil operatsiyalarni bajara boshladi, tobora uyushgan mehnat vositalarini ishlatib, o`z oldiga ancha yuksakroq maqsadlar qo`yish va ularga erishishga intildi.

Iqtisodiyotni bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida olib borayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish tajribasining ko`rsatishicha, bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarni birlashtirish, ya'ni ishlab chiqarishni gorizontal holatda bir joyga to`plash bilan bir qatorda ishlab chiqarishni vertikal holatda bir joyga to`plash, ya'ni kombinatlar tarzida, korxonalarni birlashtirish yo`li bilan tashkil etish sodir bo`ladigan bo`lsa, bunda xom ashyoni qayta ishlashning izchil bosqichlari yoki ijtimoiy mehnat taqsimotining turli shakllari bilan bog`liq bo`lgan ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi ro`y beradi.

Hozirgi sharoitda mehnat quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. mehnat jarayonining intellektual potentsiali ortadi, bu esa aqliy mehnat rolining kuchayishida, xodimning o`z faoliyati natijalariga ongli va ma'suliyat bilan munosabatda bo`lishining ortishida namoyon bo`ladi;

2. mehnat xarajatlari moddiy qismining ulushi ortadi. Mehnat vositalari (mashinalar, asbob-uskunalar, mexanizmlar va shu kabilar) bilan bog`liq buyumlashgan mehnat ulushining ko`payishi fan–texnika taraqqiyoti erishgan yutuqlari bilan bog`liq bo`lib, inson cheklangan jismoniy imkoniyatlari sharoitida mehnat unumdorligi va samaradorligining ortishida hal etuvchi omil bo`lib xizmat qiladi;

3. mehnat jarayoni ijtimoiy jihatining ahamiyati ortadi. Hozirgi vaqtda mehnat unumdorligining o`shish omillari faqat xodim malakasini yoki uning mehnatini mexanizatsiyalash darajasini oshirish bilangina emas, balki inson salomatligining ahvoli, uning kayfiyati, oiladagi, jamoadagi va umuman, jamiyatdagi munosabatlar bilan ham bog`liqdir. Mehnat munosabatlarining bu ijtimoiy tomoni mehnatning moddiy rag`batlantiruvchi omillarini to`ldiradi va inson hayotida muhim rol o`ynaydi.

O`zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to`g`risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, shuningdek, jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Mehnat to`g`risidagi qonun hujjatlariga O`zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi», «Aholini ish bilan ta'minlash to`g`risida»gi qonuni va bu qonunga Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligi tomonidan tayyorlangan sharhlar hamda mehnat va uni tashkil etish bo`yicha davlat xokimiyatining boshqa vakillik va ijroiya organlari o`z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlar kiradi.

Mehnatning ijtimoiy–iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi umumiy jihatlaridan kelib chiqib, uning serqirraligini ifodalovchi har xil turlarini konkret belgilariga qarab tizimlashtirish kerak bo`ladi.

Tabiati va mazmuniga ko`ra, mehnat turlarining tasnifi ikki yo`nalishda – ijtimoiy va tarkibiy jihatdan olib qaraladi.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	6
<b>1-BOB. MEHNAT TO'G'RISIDAGI FANNING YUZAGA KELISHI VA UNING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI</b> .....	8
1.1. Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishi.....	8
1.2. Qiymatga oid mehnat nazariyasining rivojlanishi.....	9
1.3. Mehnat to'g'risidagi nazariyaning rivojlanishi.....	12
Qisqacha xulosalar.....	14
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	14
Asosiy adabiyotlar.....	15
Internet saytlari.....	15
<b>2-BOB: «MEHNAT IQTISODIYOTI» FANINING PREDMETI VA MAZMUNI</b> .....	16
2.1. «Mehnat iqtisodiyoti» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	16
2.2. «Mehnat» haqidagi asosiy tushunchalar.....	17
2.3. Mehnatning inson va jamiyatning rivojlanishidagi o`rni.....	19
Qisqacha xulosalar.....	23
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	24
Asosiy adabiyotlar.....	24
Internet saytlari.....	24
<b>3-BOB. MEHNAT JARAYONLARINI TASHKIL ETISH</b> .....	26
3.1. Mehnat jarayonini tashkil etishning mohiyati va asoslari.....	26
3.2. Mehnatni tashkil etish va uning mehnat faoliyatidagi o`rni.....	27
3.3. Mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi.....	28
3.4. Ish o`rinlarini tashkil etish, rejalashtirish va xizmat ko`rsatish.....	32
3.5. Mehnatni tashkil etishda mehnatni normalashning ahamiyati.....	35
Qisqacha xulosalar.....	37
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	37
Asosiy adabiyotlar.....	38
Internet saytlari.....	38
<b>4-BOB: BOZOR XO'JALIGI TIZIMIDA MEHNAT BOZORI</b> .....	39
4.1. Mehnat bozori: tushunchalari va ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....	39
4.2. Mehnat bozorining shakllanishi.....	40
4.3. Mehnat bozorini tartibga solish.....	42
4.4. Yaqin kelajakda mehnat bozorining rivojlanish kontsepsiyasi.....	46
Qisqacha xulosalar.....	48
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	48
Asosiy adabiyotlar.....	49
Internet saytlari.....	49
<b>5-BOB. MEHNAT RESURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARDAN FOYDALANISH</b> .....	50
5.1. Mehnat resurslari ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida.....	50
5.2. Mehnat resurslarining shakllanishi.....	52
5.3. Mehnat resurslaridan foydalanish.....	54

Qisqacha xulosalar.....	57
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	57
Asosiy adabiyotlar.....	58
Internet saytlari.....	58
<b>6-BOB. AHOLINI ISH BILAN BANDLIGI NAZARIYALARI VA ULARNING AMALDA QO'LLANILISHI.....</b>	<b>59</b>
6.1. Aholini ish bilan bandligi bo'yicha klassik va neoklassik nazariyalar .....	59
6.2. Hozirgi zamon neoklassik nazariyalarida ish bilan bandlik masalalari .....	60
6.3. Ish bilan bandlikning hozirgi zamon nazariyalaridan foydalanish .....	63
Qisqacha xulosalar.....	65
Nazorat va muxokama uchun savollar .....	65
Asosiy adabiyotlar.....	66
Internet saytlari.....	66
<b>7-BOB. AHOLINING ISH BILAN BANDLIGI SHAKLLANISHI VA MOHIYATI.....</b>	<b>67</b>
7.1. Ish bilan bandlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....	67
7.2. Aholining ish bilan bandligi, uning asosiy turlari va shakllari .....	70
7.3. Ish bilan bandlik — ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning elementi sifatida.....	77
Qisqacha xulosalar.....	80
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	80
Asosiy adabiyotlar .....	81
Internet saytlari.....	81
<b>8-BOB. ISHSIZLIK: SABABLARI, XUSUSIYATLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI .....</b>	<b>82</b>
8.1. Ishsizlik haqida umumiy tushunchalar .....	82
8.2. Ishsizlikning sabablari.....	89
8.3. Ishsizlikni kamaytirish yo'llari.....	94
Qisqacha hulosalar.....	95
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	95
Asosiy adabiyotlar.....	96
Internet saytlari.....	96
<b>9-BOB. PERSONALNI VA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH.....</b>	<b>97</b>
9.1. Insonning korxonada va tashkilotdagi roli, uni boshqarish .....	97
9.2. Personalni ijtimoiy-psixologik jihatdan boshqarishning nazariy muammolari.....	102
9.3. Korxonalarda personalni shakllantirish va tashkil qilish amaliyoti .....	109
Qisqacha xulosalar.....	115
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	115
Asosiy adabiyotlar.....	116
Internet saytlari.....	116
<b>10-BOB. MEHNAT UNUMDORLIGI: OMILLAR VA ZAHIRALAR .....</b>	<b>117</b>
10.1. «Mehnat unumdorligi» haqida tushuncha va uni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati .....	117
10.2. Mehnat unumdorligini aniqlash usullari .....	119
10.3. Mehnat unumdorligi o'zgarishining omillari va shart-sharoitlari.....	124
10.4. Mehnat unumdorligini oshirishning zahiralari: mohiyati va sinflashuvi.....	127

Qisqacha xulosalar.....	129
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	130
Asosiy adabiyotlar.....	130
Internet saytlari.....	131
<b>11-BOB: AHOLINING TURMUSH DARAJASI, DAROMADLARI VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH .....</b>	<b>132</b>
11.1. Turmush darajasi tushunchasi va ko`rsatkichlari.....	132
11.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari va ularning turlari.....	135
11.3. Iste'mol byudjetlarining mohiyati va turlari. Yashash minimumi va iste'mol savati .....	142
Qisqacha xulosalar.....	146
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	147
Asosiy adabiyotlar.....	148
Internet saytlari.....	148
<b>12-BOB. RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARDA DAROMADLAR SIYOSATI VA ISH HAQINI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>149</b>
12.1. Daromadlar siyosati va ish haqi.....	149
12.2. Ish bilan bandlik, ish haqi va ishchi kuchi xarajatlarining xalqaro statistikasi.....	151
12.3. Ish haqini firma ichida tartibga solish.....	155
12.4. Ish haqini tabaqalashtirish va uning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri.....	162
Qisqacha xulosalar.....	<b>168</b>
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	<b>168</b>
Asosiy adabiyotlar.....	169
Internet saytlari.....	169
<b>13-BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA ISH HAQINI TASHKIL ETISH VA UNI ISLOH QILISH.....</b>	<b>170</b>
13.1. Ish haqining mohiyati va shakllanishi.....	170
13.2. Ish haqining funktsiyalari va uni tashkil etish tamoyillari.....	172
13.3. Tarif tizimining mohiyati va elementlari .....	174
Qisqacha xulosalar.....	179
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	179
Asosiy adabiyotlar.....	179
Internet saytlari.....	180
<b>14-BOB. MEHNATGA HAQ TO'LASH TIZIMLARINI TASHKIL ETISH.....</b>	<b>181</b>
14.1. Mehnatga haq to'lash tizimlari tushunchasi va ularning tasnifi .....	181
14.2. Ish xaqi turlarini tavsiflash va mehnatga haq to'lash tizimlari va kafolatlari.....	184
14.3. Asosiy va qo'shimcha ish haqi.....	187
14.4. Mehnatga haq to'lashning oddiy tizimi.....	188
Qisqacha xulosalar.....	194
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	194
Asosiy adabiyotlar.....	195
Internet saytlari.....	195







Recommended Literature .....	58
Web Resources .....	58
<b>CHAPTER 6. THE THEORY OF EMPLOYMENT AND THEIR USE IN PRACTICE</b> .....	59
6.1. Classical and неоклассические of the theory of employment .....	59
6.2. Questions of employment in modern неоклассических the theories .....	60
Summary .....	65
Questions for Review .....	65
Recommended Literature .....	66
Web Resources .....	66
<b>CHAPTER 7. FORMATION AND ESSENCE OF EMPLOYMENT</b> .....	67
7.1. Socio economic essence of employment.....	67
7.2. Employment, its kinds and forms.....	70
7.3. Employment - as an element of socio economic politics.....	77
Summary.....	80
Questions for Review .....	80
Recommended Literature .....	81
Web Resources .....	81
<b>CHAPTER 8. UNEMPLOYMENT: THE REASONS, PROPERTY AND WAY OF REDUCTION</b> .....	82
8.1. General(common) concepts about unemployment.....	82
8.2. Reason of unemployment.....	89
8.3. Way of reduction of unemployment.....	94
Summary.....	95
Questions for Review .....	95
Recommended Literature .....	96
Web Resources .....	96
<b>CHAPTER 9. MANAGEMENT OF THE PERSONNEL AND HUMAN RESOURCES</b> .....	97
9.1. Role of the man at the enterprise, in organization and his(its) management... ..	97
9.2. Теоритические of a problem of social - psychological management of the personnel.....	102
9.3. Formation and practical organization of the personnel at the enterprise .....	109
Summary.....	115
Questions for Review .....	115
Recommended Literature .....	116
Web Resources .....	116
<b>CHAPTER 10. PRODUCTIVITY OF WORK: CONCEPT, FACTORS AND RESERVES</b> .....	117
10.1. Concept about " of productivity of work " and his(its) socio economic essence .....	117
10.2. Methods of definition of productivity of work .....	119
10.3. Factors and conditions of change of productivity of work .....	124
10.4. Reserves of increase of productivity of work: essence and classification ...	127
Summary.....	129